

UDK.: 619.616.9 – 036.2:576.807.3

QORAMOLLARNING EFEMER ISITMA KASALLIGINI DAVOLASH, PROFILAKTIKA VA QARSHI KURASH TADBIRLARI.

Mengliyev Ali Saykanovich

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti dotsent.

Qodirov Bahodir Qoraqulovich

Namozov Hamza Pardayevich

Xolboyev Azizbek Ali o'g'li

Бандихон агротехнологиялар техникуму

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kasallikning klinik belgilari, patologik o'zgarishlar, tashxis, davolash va oldini olish choralar qoramollarda efemer isitmasini nazorat qilish va muammolari muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *qoramol, efemer, isitma, virus, qon so'ruvchi pashsha, dezinfektsiya, dezinfektsiya.*

TREATMENT, PREVENTION AND CONTROL MEASURES FOR EPHEMERAL FEVER DISEASE IN CATTLE.

Abstract: *This article discusses the clinical signs of the disease, pathological changes, diagnosis, treatment and preventive measures, control and problems of ephemeral fever in cattle.*

Key words: *cattle, ephemera, fever, virus, blood-sucking fly, disinsection, disinfection.*

МЕРЫ ЛЕЧЕНИЯ, ПРОФИЛАКТИКИ И КОНТРОЛЯ ЗАБОЛЕВАНИЯ ЭФЕМЕРНОЙ ЛИХОРАДКОЙ КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА.

Аннотация: *В данном состоянии рассматриваются клинические признаки заболеваний, патологические изменения, диагностика, лечение и профилактика, лечение и проблемы эфемерной лихорадки крупного рогатого скота.*

Ключевые слова: *крупный рогатый скот, эфемеры, кровососущие мухи, лихорадка, вирус, дезинсекция, дезинфекция.*

KIRISH

Efemer isitma kasalligi - o'tkir kechuvchi transmissiv virus kasalligi bo'lib, asosan qoramollarda qisqa muddatli (gr.efemer-qisqa) isitma, burun, og'iz, qizil o'ngach, ko'z shilliq pardalarining yallig'lanishi, gavda va oyoq muskullarining taranglashishi (qotishi, tortishishi), qiyin harakat va oqsash bilan xarakterlanadi.

Kasallikni Rabdoviridae oilasiga mansub, nukleolasida ribonuklein kislota saqlovchi limfotrop Bovine ephemeralis fever rabdovirus virusi qo'zg'atadi. Virus organizmga kirgandan keyin, unga qarshi organizmda virusni neytrallovchi va komplementni bog'lovchi antitelolar

hosil bo'lad. Kasallik kontagioz emas, Culex annulirosis, Anopheles annulipes va boshqa avlodlariga mansub pashshalarning qoramollarni qonini so'rishi jarayonida avval virus ularga o'tadi va keyin pashshalar orqali sog'lom hayvonga o'tadi. Yuqorida ta'kidlangan pashshalar orqali virus sog'lom qoramolga mexanik o'tmaydi, balki ularning organizmida yashaydi. Shuning uchun ham pashshalar tabiatda ushbu kasallikning rezervuari hisoblanadi.

Efemer isitmasi kasalligi juda tez tarqalishi bilan xarakterlanadi. Kasallik qo'zg'atuvchining manbai bo'lib kasal va virus tashuvchi qoramollar hisoblanadi. Bunday hayvonlarning qonini so'rigan pashsha, avvalo efemer isitmasi virusini o'ziga oladi, keyin u sog'lom hayvon qonini so'rish jarayonida uni ushbu virus bilan zararlaydi.

Virus bilan zararlangan pashshalar kuchli shamol vositasida yuzlab kilometr masofaga uchirib ketilishi oqibatida kasallik virusi faqatgina biror bir hudud bilan kifoyalanmasdan, balki viloyat, mamlakat, hattoki qit'a bo'yicha tarqalishi mumkin.

Bu kasallik mamlakatimiz uchun ekzotik kasallar toifasiga kiradi, chunki efemer isitmasi birinchi marta 1984 yilda Termiz isitmasi nomi bilan qayd qilingan, keyinchalik 2002 yil va 2012 yilda qoramollar orasida qayd qilingan. 2012 yilning avgust oyida Surxondaryo viloyati hududida qoramollar orasida kuzatilgan ushbu kasallikni kuchli shamol vositasida Afg'onistondan virus bilan zararlangan pashsha olib kelgan degan xulosaga kelindi. Chunki, bu kasallik Osiyo, qit'asi hududlarida (Indoneziya, Yaponiya, Xitoy, Xindiston) turli vaqtlarda ro'yxatga olingan.

Davolash. Maxsus davolash uchun-efemer isitmasiga qarshi giperimmunos qon zardoba yoki rekonvaletsent qon zardobi qo'llaniladi. Bundan tashqari, simptomatik davolash yaxshi samara beradi.

Efemer isitmasi bilan kasallangan qoramollarni dastlab toza va salqin alohida joyga ajratib, so'ngra quyidagi usulda davolashni tavsiya etishadi:

- har kuni bir marta 10-% kofein natriy benzoat yoki kamfora molning og'irligiga qarab 5-12 ml gacha teri ostiga yuboriladi;

6 soat oraliq bilan sekundar infeksiyani oldin olish maqsadida antibiotiklarning biri penitsillin, tetratsiklin, ampitsillin, gentamitsin xar 1 kg tirik vaznga 2-4 ming ta'sir birlik hisobida mushak orasiga yuboriladi yoki sulfanilamid preparatlaridan biri norsulfazol, sulfantrol, sulfademizin, analgin aspirin va molning vazniga qarab 1-4,0 gacha xar kuni ikki marta. suv bilan ichiriladi.

- kasal moldagi atoniya, gipotoniya qarshim 10-12 ml chemeritsa damlamasi yoki sut kislotasi 100 ml suv bilan yoxud molning vazniga qarab 15-50 ml glauber tuzi 500 ml suv bilan ichiriladi yoki 5 % li osh tuzi eritmasi 250 ml miqdorda venaga yuboriladi:

- xar kuni 1 marta 0,9-% lit steril fiziologik eritma 500 ml miqdorda 5- % li askorbin kislotasi, 10-20 ml 10 % li kalsiy xlorid eritmasi va 1% li tripoflavin bilan vena tomiriga yuboriladi;

- xar kun 1 marta 5-10% li glyukoza 250-500 ml miqdorda vena tomiriga yuborilsa, maqsadga muvofiq.bo'ladi.

Oyoq bo'g'inlariga kamfora yog'i, kamfora spirti surtiladi, ogiz shilliq pardalariga 5 % li osh tuzi, 1:1000 nisbatdagi kaliy permanganat, 2-3% li rivanol, 11-t,5% li mis kuporosi bilan ishlov beriladi. Davolangan qoramollar 98-100% holatda sog'ayadi.

Profilaktika va qarshi-kurashish tadbirlari. Moyil hayvonlarni ushbu kasallik virusidan himoya etishning asosiy yo'li - mamlakatunizga zotni yaxshilash maqsadida keltirilayotgan qoramollarni ushbu kasallik bo'yicha sog'lom hududlardan keltirish, ularni protilaktik karantinda saqlash davrida klinik qattiq nazorat etish hisoblanadi. Molxonalarni toza va ozoda saqlash, veterinariya - sanitariya tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish, ya'ni chorvachilik binosiga kirishda dezobarer o'ratish, binolarga kirishda dezinfektor bilan obdon namlangan dezogilamlar orqali kirishni tashkil qilish, har 10 kunda 3-4% li o'yuvchi natriy, 5-10% faol xlorli ohak, 2-3% li formaldegid bilan muntazam dezinfeksiya qilish, to'plangan go'ngni biotermik zararsizlantirish, gematofaglarga qarshi binolarni 3% li kreolin, 0,015-10,025% sipermetrin, 0,1% li ektomin yoki 0,0062-0,125% li nurel-D ning suvli emulsiyasi bilan dezinfeksiya qilib turish, hayvonlar rezistentligini oshirish uchun ularni zoogigienik talablar doirasida saqlash, to'yimli va vitaminli ozuqalar berish qoramollar orasida efemer isitmani oldini olishga yordam beradi.

Efemer isitmasi 2002 yilda O'zbekistonda epizootiya bo'lib tarqalgandan keyin VITI olimlari (X.S. Salimov, A. Ro'zimurodov, A. Mengliyev) va DVBB xodimlari M. A. Ro'zimurodov, T.M. Tenlar bilan hamkorlikda ushbu kasallikni oldini olish va unga qarshi kurash tadbirlari bo'yicha vaqtinchalik "Yo'riqnoma" ishlab chiqildi, u VITI ilmiy-kengashida ma'qullanib, 2003 yil 12 aprelda DVBB tomonidan tasdiqlandi. Ushbu "Yo'riqnoma"ga asosan kasallik virusini mamlakatimiz hududiga kiritmaslik maqsadida chorvachiligi rahbarlari va qoramol egalari quyidagilarni bajarishga majbur:

- qoramollar orasida ushbu kasallikka gumon paydo bo'lsa, darhol u haqda mutasaddi veterinariya mutaxassisiga, MFY va mahalliy hokimiyat organlariga axborot berish hamda mutaxassis kelgunga qadar kasal molni sog'lom moldan ajratishni tashkil etish;

- qoramollarni fermada joylashtirishda "bari bo'sh -bari-band" tamoyiliga qattiq rioya qilish.

Qoramollarni etemur isitmasidan maxsus profilaktika qilish uchun tirik va faolsizlantirilgan kultural vaksinalar, giperimmun hamda rekonvalessent qon zardoblarini ushbu preparatlarini qo'llash bo'yicha "Qo'llanma" asosida ishlatish tavsiya etiladi.

Ushbu kasallik qoramollar orasida klinik, epizotologik, patologoanatomik, serologik va virusologik usullarda aniqlansa, veterinariya Qonuni doirasida ferma yoki aholi punkti nosog'lom deb e'lon qilinadi va unga tuman (shahar) bosh veterinariya noziri dalolatnomasi asosida hokim qarori bilan cheklov qo'yiladi nosog'lom punktda barcha cheklov tadbirlarini bajarish va kasallikni tarqalmaslik choralari ko'riladi. Fermaga yangi qoramollarni kirishi, chiqishi, ularni boshqa guruhlar bilan aralashtirish man etiladi. Kasallik qo'zg'atuvchi manba hisoblangan kasal hayvonlar darhol alohida binoga ajratiladi, butunlay gematofaglardan himoya qilish uchun izolyatorda har kuni yuqorida ta'kidlangandek tartibda dezinfeksiya va dezinfeksiya tadbirlari o'tkaziladi va kasallar mollarda davolanadi.

Fermadan, aholi punktidan cheklov oxirgi sog'aygan yoki majburiy so'yilgan hayvon holatidan 30 kun keyin, go'ng yig'ilib biotermik ishlov berilgandan, dezinfeksiya va yakunlovchi dezinfeksiyadan so'ng tuman bosh veterinariya noziri dalolatnomasi asosida hokim qarori bilan olinadi.

Immunitet. Avstraliya shtammi bilan kasallanib sog'aygan mollarda shakllangan immunitet 2 yil, virusning afrika shtammi bilan kasallangan mollarda bir necha oy davom etadi

xolos. Bo'g'oz sigirlardan yosh buzoqlarga o'tgan kolostral immunitet 6-7 oy davomida saqlanadi. Faolsizlantirilgan vaksina bilan 8-10 kun oraliqda 2 marta emlangan qoramollarda immunitet 6 oy_davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.X.S.Salimov.,A.A.Qambarov.,I.X.Salimov.Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar. Darslik.Toshkent-2021.299-203 betlar.

2.X.Салимов.,А.Қамбаров.Эпизоотология.Дарслик.Тошкент-2016.299-304.бет.

3.A.S.Mengliyev.,I.Siddqov., Sh.Chorshambiev., Measures to Prevent And Treat Cattle Ephemeral Fever. Valeology International journal of Medical Anthropology and Bioethicsw (ISSN 2995-4924)Volume 02 ISSUE 05, 2024 <https://multijournals.org/index.php/valeology> 154-157 betlar.

4.A.S.Mengliyev., Sh.Chorshambiev., I.Salimov., I.Siddqov., Measures For The Prevention And Control Of Ephemeral Fever In Cattle. Eurasian Journal of Academic Research Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.1 | SJIF = 7.899 www.in-academy.uz <https://doi.org/10.5281/zenodo.12197814> Received:20 th June 2024 98-101 pg.

5.A.S.Mengliyev.,Sh.Chorshambiev., I.Salimov .,I.Siddqov., Measures For The Prevention And Control of Ephemeral Fever In Cattle. Journal of Intellectual Property and Human Rights (ISSN 2720-6882) IF (Impact Factor) : 8.2 Volume 3 Issue 10 Oct 4, 2024 1-3 pg.

6.A.S.Mengliyev., Sh.Chorshambiev.,Qoramollarning efemer isitmasi kasalligini davolash va oldini olish MALAYZIYA Multidisciplinary Scientific Journal International conference on education and innovation Voiume-l, Issue-1, April. 2024. 20-24 pg.

7.A.S.Mengliyev.,Sh.Chorshambiev.,I.Salimov.,I.Siddqov.,Qoramollarda efemer isitma kasalligining klinik belgilari, diagnostikasi va oldini olish. "O'zbekiston janubida qishloq xo'jaligini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish istiqbollari" I-Xalqaro ilmiy texnik anjuman TO'PLAMI Termiz 2024 yil 24-25 oktyabr 980-983 betlar.

8.A.S.Mengliyev.,Sh.Chorshambiev.,Clinical signs and prevention of ephemeral fever disease in cattle. International Journal of Artificial Intelligence

ISSN:2692 5206, Impact Factor:12,23 American Academic publishers,

volume 05, issue 04,2025 247-250 pg. Journal:<https://www.Academicpublishers.Org/journals/index.php/ijai>.

9.A.S.Mengliyev.,Clinical Signs and Prevention of Ephemeral Fever Disease in Cattle. International Journal of formal education Volume: 4 Issue: 3 | Mar-2025 11-13 pg ISSN 2720-6874 open access jornal Academizone.Net <http://journals.Academiczone.Net/index.php/ijfe>.